

MEHNAT QONUNCHILIGI RIOYA ETILISHI USTIDAN DAVLAT NAZORATINING AHAMIYATI

Musayev Ilhom Hasan o'g'li

TDYU magistranti

Elektron pochta: ilhombekmusoyev@gmail.com

Ma'lumki har bir davlatda mamlakat taraqqiyoti va rivoji uchun qonunlar ishlab chiqiladi. Bu qonunlar o'z navbatida huquqiy tizimni shakllantiradi. Qonunlar aholini manfaatlari kelib chiqib yaratiladi va ijtimoiy hayotni barqarorlashtiradi.

Xususan biz quyida tilga oladigan mehnat qonunchiligi ham shular jumlasidandir. Mehnat munosabatlari – mamlakatda eng dolzarb va muhim masalalardan biridir. Chunki hozir mamlakat taraqqiyoti iqtisodiyotga bog'liq b'lib turgan bir vaqtda, iqtisodiyot siyosatdan ustun bo'lib turgan bir paytda, mehnat munosabatlari, aholini ish bilan ta'minlash, ularning adolatli mehnat sharoitlarida ishlash masalalari dolrazbligini saqlab turibdi. Aynan shu munosabtlarni tartibga soladigan qonunchilikni yaratish va uni rioya etilishi, bajarilishi ustidan davlat nazoratini o'rnatish juda muhimdir. Shubhasiz, bu mehnat munosabatlarida yuzaga keladigan turli xil muammolarni hal etilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Qonun ustuvorligi - amalga oshirilayotgan islohotlarimizning bosh tamoyillaridan biri sanaladi. Kelajagi buyuk davlat baqo etish maqsadini o'z oldimizga qo'yar ekanmiz, ushbu buyuk davlatni qonun saltanati sifatida, insoniyat o'z taraqqiyotida qo'lga kiritgan demokratik va umuminsoniy qadriyatlar oliy ne'mat deb qaraladigan fuqarolik jamiyati sifatida ko'z oldimizda tasavvur etamiz. Tabiiyki, bunday davlatda va jamiyatda fuqarolar huquqlari poymol etilishi, insoniy manfaatlar oyoq osti qilinishiga aslo yo'l qo'yilmaydi. Qonun saltanatini barpo etish, eng avvalo, qonunlarga barchaning so'zsiz va og'ishmay amal qilishini ta'minlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Afsuski, bugungi kunda korxonalar va tashkilotlarda mehnat qonunlarini buzish, xodimlar huquqlari va qonuniy manfaatlariga bepisandlik bilan qarash hollari tez-tez uchrayib turibdi.

Ayrim hollarda qonunchilikni ta'minlash uchun mas'ul shaxslarning o'zlari tomonidan mehnat qonunlari, boshqa qonun hujjatlari qo'pol buzilayotganini kuzatishning o'zi achinarli. Bunday salbiy holatlar qonunchilikni ta'minlash ustidan kuzatuv va nazoratni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Mehnat qonunlari bajarilishi ustidan nazorat deganda vakolatli davlat va jamoat organlari tomonidan xodimlar mehnat huquqlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladigan maxsus faoliyat tushuniladi. Nazorat faoliyati davomida ushbu vakolatli

organlar ish beruvchi va u vakil qilgan shaxslar tomonidan mehnat qonunlari buzilishining oldini oladilar, buzilgan mehnat huquqlarini tiklaydilar, qonun buzilishida aybdor bo'lgan mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy javobgarlikka tortadilar¹.

Mehnat munosabatlarida qonunchilikni ta'minlash borasida nazoratning quyidagi turlari amalga oshiriladi:

- a) davlat nazorati;
- b) idoraviy nazorat;
- v) sud nazorati;
- g) prokurorlik nazorati;
- d) jamoat nazorati.

Mehnat qonunchiligini bajarishda amalga oshiriladigan nazorat faoliyatlari mehnat shartlarini belgilanishi va bu shartlarni qo'llanilishi ustidan amalga oshiriladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirishni qonunda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Demak, mamlakatimizda mehnat munosabatlarini tartibga soladigan eng muhim huquqiy asos bu – **O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksidir**. Unga ko'ra mehnat qonunchiligi quyidagicha tasniflanadi:

Mehnat to'g'risidagi qonunchilik ushbu Kodeksdan hamda yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida xodimlar uchun O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonunchiligiga yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga nisbatan imtiyozliroq qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi².

Ma'lumki mamlakatimizda qonunlarning ijrosi ustidan, bajarilishi ustidan davlat nazoratini Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Xususan, mehnat qonunchiligi tarkibiga kiradigan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yaratilgan huquqiy asoslarni bajarilishi ustidan Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Mehnatni muhofaza qilishi bu aholini, ishchi qatlamni, xodimlarni manfaati bilan bo'g'liqdir. Ularning huquqlari, ishlash sharoitlari va manfaatlari aynan **O'RQ-410-sonli "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun** bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunning 6-moddasi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat nazorati haqida so'z boradi. Unga ko'ra:

Mehnatni muhofaza qilishni davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus

¹ Y. Tursunov, M. Usmanova Mehnat huquqi. Darslik. -T.: TDYI nashriyoti. 2006. -216 bet

² O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (yangi tahrir) // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288#-6257647>

vakolatli davlat organi, shuningdek mehnatni muhofaza qilish sohasida qonunchilikka muvofiq ayrim vakolatlarga ega bo'lgan boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi¹.

Bundan tashqari, Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari ikki oy muddatda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risidagi tarmoq nizomlarini ishlab chiqadi va kelishish uchun O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga kiritilishini ta'minlaydi.

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risidagi namunaviy nizomga ko'ra, **mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:**

- xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligini ta'minlash;
- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- barcha korxonalar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni belgilash;
- mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;
- xodimlarni himoya qiluvchi xavfsiz texnika, texnologiya va vositalarning ishlab chiqilishi va joriy etilishini rag'batlantirish;
- fan, texnika yutuqlaridan hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or milliy va xorijiy tajribadan foydalanish;
- ishlab chiqarishdagi baxsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish;
- xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan nizomga muvofiq vakolatli organning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha (bosh) davlat texnik inspektorlari hamda mehnat sharoitlari bo'yicha (bosh) davlat ekspertlari tomonidan amalga oshiriladi.

Xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kasaba uyushmalarining inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

¹ O'RQ-410-sonli "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun. // <https://lex.uz/docs/-3031427>

Korxonada xodimlarning mehnatni muhofaza qilishga hamda ishlarni xavfsiz olib borishga doir me'yorlar, qoidalar va yo'riqnomalarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kasaba uyushmasi qo'mitasining yoki xodimlarning boshqa vakillik organlarining hisobot-saylov majlisida (konferensiyasida) saylanadigan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va fuqarolar tomonidan xalqaro shartnomalar va kelishuvlar asosida ishlar bajarilganda, O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi, qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlar, shuningdek texnik standartlarga muvofiq ko'zda tutilgan mehnat muhofazasi talablari qo'llaniladi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Korxonaning har qanday darajadagi boshqaruvida mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarga amal qilinishiga mas'ul shaxs korxonada rahbari hisoblanadi¹.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarni ijrosi ustidan, bajarilishi ustidan nazoratni bo'lishi ancha ko'p qulayliklar va muammolarning yechimini berishga yordam beradi.

Muxtasar qilib aytganda, mehnat munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan qonunchilik hujjatlarini bajarilishi ustidan davlat nazoratining bo'lishi, birinchidan, qonunlarning mamlakat hududida qadrini oshiradi va ularning fuqarolar tomonidan hurmat qilinishini ta'minlanadi. Ikkinchidan esa mehnat bilan bog'liq bir qancha jinoyatlar oldi olinadi. Mamlakatni kuchli huquqiy mexanizm orqali boshqarish lozim. Ishchilarni, mehnatga layoqatli aholini manfaatlarini himoya qiladigan har qanday yuridik hujjat tizim orqali ishlashi kerak. Zero, nazorat – kuchli tartib intizom va tizim bilan yanada mustahkam bo'ladi.

¹ <https://m.kun.uz/uz/news/2020/08/28/mehnatni-muhofaza-qilish-boyicha-ishlarni-tashkil-etish-tartibi-aniqlashtiriladi>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Y. Tursunov, M. Usmanova Mehnat huquqi. Darslik. -T.: TDYI nashriyoti. 2006. 238 bet
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (yangi tahrir) // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288#-6257647>
3. O‘RQ-410-sonli “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun. // <https://lex.uz/docs/-3031427>
4. <https://m.kun.uz/uz/news/2020/08/28/mehnatni-muhofaza-qilish-boyicha-ishlarni-tashkil-etish-tartibi-aniqlashtiriladi>